

SOLIQQA TORTISHNING TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH VA FISKAL SIYOSATNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘NALISHLARI

Sulaymonov Farrux Shuxratovich

Mustaqil tadqiqotchi, Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

Kadrlar bo‘limi boshlig‘i

Elektron pochta: sulaymonovfsh@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada soliqqa tortishning tartibga solish funksiyasi va uning iqtisodiy jarayonlarga ta’siri ilmiy-nazariy asosda tahlil qilingan. Tadqiqotda fiskal siyosat samaradorligini oshirishning ustuvor yo‘nalishlari, jumladan soliq ma’murchiligini takomillashtirish va soliq yukini optimallashtirish masalalari yoritiladi. Natijalar soliqlar orqali iqtisodiy faollikni rag‘batlantirish va fiskal barqarorlikni mustahkamlash imkoniyatlarini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: soliqqa tortish, fiskal siyosat, tartibga solish funksiyasi, soliq ma’murchiligi, iqtisodiy rag‘bat.

Аннотация: В данной статье проведён научно-теоретический анализ регулирующей функции налогообложения и её влияния на экономические процессы. В исследовании раскрыты приоритетные направления повышения эффективности фискальной политики, включая совершенствование налогового администрирования и оптимизацию налоговой нагрузки. Полученные результаты демонстрируют возможности стимулирования экономической активности и укрепления фискальной устойчивости посредством эффективного использования налоговых инструментов.

Ключевые слова: налогообложение, фискальная политика, регулирующая функция, налоговое администрирование, экономическое стимулирование.

Abstract: This article provides a scientific and theoretical analysis of the regulatory function of taxation and its impact on economic processes. The study highlights the priority directions for improving the effectiveness of fiscal policy, including the enhancement of tax administration and the optimization of the tax burden. The findings demonstrate the potential of tax instruments to stimulate economic activity and strengthen fiscal sustainability.

Keywords: taxation, fiscal policy, regulatory function, tax administration, economic incentives.

Kirish. Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliqqa tortish tizimi nafaqat davlat byudjeti daromadlarining asosiy manbai, balki iqtisodiy jarayonlarni tartibga

solishning samarali instrumenti sifatida ham alohida strategik ahamiyat kasb etadi. Soliq siyosati orqali davlat iqtisodiy faollik darajasiga, investitsiya oqimlariga, ishlab chiqarish ko‘lamiga, aholining real daromadlariga va tadbirkorlik muhitining raqobatbardoshligiga bevosita ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois, soliqqa tortishning tartibga solish funksiyasini takomillashtirish zamonaviy fiskal boshqaruvning eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan keskin strukturaviy o‘zgarishlar, geoiqtisodiy vaziyatning beqarorligi, global inflyatsiya bosimining ortishi, xalqaro soliq raqobati va transmilliy korporatsiyalar faoliyati natijasida vujudga kelayotgan yangi fiskal chaqiriqlar soliq tizimining tartibga solish imkoniyatlariga bo‘lgan talabni keskin oshirmoqda. Mamlakatlar soliq siyosatini shakllantirishda endilikda nafaqat budget barqarorligini ta’minlash, balki iqtisodiy jarayonlarning murakkab dinamikasini hisobga olgan holda proaktiv fiskal mexanizmlarni joriy etishga intilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan soliq-budget islohotlari milliy fiskal tizimning liberallashtirilishi, soliq yukining maqbullashtirilishi, tadbirkorlik faoliyatining institutsional sharoitlarini yaxshilash va iqtisodiy o‘sish manbalarini kengaytirish kabi strategik vazifalarga qaratilgan. Xususan, soliq stavkalarining pasaytirilishi, soliq ma‘murchiligining raqamlashtirilishi, axborot tizimlarining integratsiyasi, soliq organlarining funksional modernizatsiyasi, shaffoflik va fiskal intizomni kuchaytirishga qaratilgan mexanizmlar amaliyotga keng tatbiq etilmoqda.

Adabiyotlar sharhi

Soliqqa tortishning tartibga solish funksiyasini nazariy asoslash klassik iqtisodiyot vakillaridan boshlanadi. Adam Smit soliqlarning fiskal funksiyasiga alohida e’tibor qaratgan bo‘lsa-da, ularning iqtisodiy xatti-harakatlarga ta’sirini ham ta’kidlagan [1]. D. Rikardo soliqlarning ishlab chiqarish xarajatlariga va milliy daromad taqsimotiga ta’siri bo‘yicha nazariy yondashuvlar ishlab chiqqan [2], bu keyinchalik soliq mexanizmlarining resurslardan foydalanishga ta’sirini tushuntirishda muhim asos bo‘ldi.

Neoklassik yondashuv vakillari A. Pigou va A. Marshall soliqlarning bozor muvaffaqiyatsizliklarini tuzatishdagi rolini asoslab, soliqlarni tartibga solish instrumenti sifatida ko‘rishgan [3]. Pigou tomonidan ishlab chiqilgan “tashqi ta’sirlarni soliqlar orqali tartibga solish” nazariyasi ishlab chiqarish ekologik standartlari, resurslar iste’moli va monopoliya sharoitida soliqlarning tartibga solish kuchini ilmiy asoslab berdi.

J. M. Keynes soliqlarning tartibga solish funksiyasini makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash vositasi sifatida talqin etgan. Uning fikricha, soliqlar yordamida agregat talabni oshirish yoki qisqartirish orqali iqtisodiy sikl yumshatiladi [4]. Bu yondashuv fiskal siyosatni kontrtsiklik boshqaruvning asosiy elementi sifatida qarashga olib kelgan.

1970-1980 yillarda soliqlar va daromadlar o‘rtasidagi nisbatni chuqur tahlil qilgan A. Laffer “optimal soliq stavkasi” tushunchasini ilgari surdi. Laffer egri chizig‘i soliqlar haddan tashqari yuqori bo‘lganida budget tushumlari pasayishi mumkinligini isbotlab berdi [5]. Ushbu yondashuv soliq yuki oqibatlarini bashoratlashda va soliq siyosatining iqtisodiy samaradorligini baholashda keng qo‘llaniladi.

Tahlil va Natijalar

Rivojlanayotgan mamlakatlarda fiskal siyosatning samaradorligi bevosita soliqqa tortish tizimining institutsional va tashkiliy sifatiga bog‘liq. Soliq tizimining izchil ishlashi, bir tomondan, davlat byudjeti daromadlarini barqaror shakllantiradi, ikkinchi tomondan esa ijtimoiy tenglik, iqtisodiy muvozanat va fiskal barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qiladi. Shu bois, soliqqa tortish tizimini takomillashtirish fiskal boshqaruvning markaziy vazifalaridan biri hisoblanadi. Quyida rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi asosida soliqqa tortish orqali fiskal tartibni mustahkamlashning asosiy yo‘nalishlari tahlil qilinadi.

1-jadval. Rivojlanayotgan mamlakatlarda fiskal barqarorlikni mustahkamlovchi asosiy omillar

Ko‘rsatkich	Asosiy mazmuni	Amaliy ahamiyati
Soliq siyosatining barqarorligi	Soliq qonunchiligi va fiskal yondashuvlarning izchilligi, soliqqa oid qarorlarning uzoq muddatli prognoz qilinuvchanligi	Investorlar ishonchini mustahkamlaydi, iqtisodiy faoliyatni rejalashtirishni yengillashtiradi
Soliq ma‘muriyatining samaradorligi	Soliq organlarining tashkiliy mustahkamligi, kadrlar salohiyati, raqamli boshqaruv tizimlarining joriy etilishi	Soliq intizomini kuchaytiradi, soliq to‘lovchilar bilan o‘zaro ishonchni oshiradi
Norasmiy iqtisodiyotni qisqartirish	Norasmiy sektorda faoliyat yurituvchi subyektlarni rasmiy soliq maydoniga kiritish, soddalashtirilgan tartiblarni joriy etish	Soliq bazasini kengaytiradi, fiskal mustaqillikni oshiradi
Soliq imtiyozlarini optimallashtirish	Samarasiz, tor yo‘nalishli yoki siyosiy sabablarga asoslangan imtiyozlarni bekor qilish va ularni maqsadli yo‘naltirish	Davlat resurslaridan oqilona foydalanishni ta‘minlaydi, ijtimoiy adolatni kuchaytiradi

Manba: Muallif tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tahlillar asosida tuzilgan.

Jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinadiki, fiskal barqarorlikni mustahkamlash jarayoni soliqqa tortish tizimini faqat fiskal yuklamalar orqali emas, balki boshqaruv sifatini yaxshilash orqali ham amalga oshirilishi lozimligini ko‘rsatadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda fiskal siyosatning zaifligi ko‘pincha soliq siyosatining beqarorligi bilan izohlanadi. Barqaror soliq siyosati iqtisodiy muhitni prognoz qilinadigan va ishonchli holatga keltiradi, bu esa investitsion muhitni yaxshilaydi.

Soliq ma‘muriyatining raqamli texnologiyalar asosida faoliyat yuritishi fiskal boshqaruvda inson omilini kamaytiradi, korrupsiya xavfini pasaytiradi va soliqdan qochish holatlarini qisqartiradi. Norasmiy iqtisodiyotni legallashtirish orqali soliq bazasining kengayishi, davlat byudjetining ichki manbalar hisobidan to‘ldirilishiga sharoit yaratadi. Soliq imtiyozlarini optimallashtirish esa fiskal resurslarning samarali taqsimlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa. Soliqqa tortishning tartibga solish funksiyasi zamonaviy fiskal siyosatning asosiy tarkibiy qismi bo‘lib, iqtisodiy faollikni rag‘batlantirish, investitsion

muhitni yaxshilash va davlat moliyaviy barqarorligini ta’minlashda strategik ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari soliqlarni faqat budjetni to’ldirish vositasi deb emas, balki iqtisodiy xulq-atvorni boshqarish va tarkibiy transformatsiyalarni qo’llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi mexanizm sifatida ko’rib chiqish zarurligini ko’rsatadi. Bu esa soliq siyosatining bozor jarayonlariga moslashuvchan, kontrtsiklik va o’rta muddatli prognozlarga asoslangan holda boshqarilishini talab qiladi.

Xalqaro va mahalliy adabiyotlar tahlili soliqlar samaradorligi ko’p jihatdan soliq ma’murchiligining sifatiga, soliq yukining maqbulligiga, fiskal siyosatning barqarorligiga va soliq to’lovchilarga bo’lgan ishonch darajasiga bog’liqligini tasdiqlaydi. O‘zbekistonda olib borilayotgan soliq islohotlari soliq stavkalarini pasaytirish, raqamlashtirish, soliq intizomini kuchaytirish va soliq bazasini kengaytirish bo’yicha ijobiy natijalarga erishayotgan bo’lsa-da, soliq imtiyozlari samaradorligi, yashirin iqtisodiyot ulushi va soliq siyosatining prognozliligi kabi yo’nalishlarda hali ham takomillashtirish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Smith A. The Wealth of Nations. — London: Methuen, 1776.
2. Ricardo D. Principles of Political Economy and Taxation. — London: John Murray, 1817.
3. Pigou A. C. The Economics of Welfare. — London: Macmillan, 1920.
4. Keynes J. M. The General Theory of Employment, Interest and Money. — London: Palgrave Macmillan, 1936.
5. Laffer A. The Laffer Curve: Past, Present and Future. — Washington, D.C.: The Heritage Foundation, 2004.